

**QIYIN HAYOTIY VAZIYATGA TUSHGAN
AYOLLAR BILAN IJTIMOIY ISH**

Suyumova Marhabo
+998932621801
suyumovamarhabo@gmail.com
Farg’ona Davlat Universiteti
Ijtimoiy ish yo’nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada qiyin hayotiy vaziyatga tushgan ayollar bilan ijtimoiy ish olib boorish, ularga yordam qo’lini cho’zishda ijtimoiy ish xodimi o’rni, bugungi kunda ularga qaratilgan ijtimoiy siyosat va ijtimoiy xizmat, qiyin hayotiy vaziatga tushish sabablari va omillari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: ayollar, ijtimoiy ish, ijtimoiy ish xodimi, ijtimoiy siyosat, hayotiy qiyin vaziyat.

Bugungi globallashuv jarayonida ayollarni erk va haq huqlarni himoya qilish gender tenglik birinchi darajaga chiqdi, yurtimizda ham ayollarni ijtimoiy himoya qilish juda yaxshi yo’lga qo’yilmoqda va ijtimoiy siyosat doirasidagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Ayol siymosiga shunday ta’rif beradi: “Yer yuzida so‘z va soz san’ati, shoibu hofiz, rassom va haykaltarosh paydo bo‘libdiki, ona va ayol zoti yuksak pardalarda tarannum etib kelinadi. Ulug‘ shoirimiz Erkin Vohidov aytganlaridek, “Olamda ayol madhiga doston tugamaydi”. Chunki, ayol siymosi Yaratganning tengsiz mo‘jizasi bo‘lib kelgan va hamisha shunday bo‘lib qoladi.”¹ Albatta Ayol bor-ki olam munavvardir. Xotin-qizlarni qo’ldan kelguncha qo’llab-quvvatlash, ularga yetarlicha imkoniyatlarni yaratish, ularni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash asosiy burchimiz hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senat raisi Tanzila Narbayeva: “2017-yilda respublika Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi sifatida barcha hududlarga bordim, haqiqiy ahvolni o‘rgandim. Afsuski, Xotin-qizlar qo‘mitasining hududiy bo‘linmalari rahbarlari viloyat, tuman hokimlarining o‘rinbosarlariga tenglashtirilgan bo‘lsa-da, ularning moddiy imkoniyatlari anchayin cheklangan edi. Misol uchun, qiynalgan ayollarni qo’llab-quvvatlash, qariya onaxonlar holidan xabar olish kabi tadbirlarni uyushtirish uchun ham mablag‘ topilmas edi” deb takidlaydi

¹ <https://daryo.uz/2019/03/07/shavkat-mirziyoyev-ayollarning-jamiyatdagi-ornini-ozbekiston-erishayotgan-yutuqlardagi-beqiyos-hissasini-hech-narsa-bilan-olchab-bolmaydi>

Hozirgi vaqtida ayollarimiz o’zi bilmagan holda hayotiy qiyin vaziyatga tushib qolmoqda. Hayotiy qiyin vaziyatlar, migratsiya ta’sirida, ijtimoiy jihatdan, zo’ravonlik oqibatida, nogironligi bo’lgan shaxslar, ruhiy zARBalar, moddiy yetishmovchilik, ajrim, ishsizlik, stress kabi hayotiy qiyin vaziyatlarni boshdan kechiradilar. Ayollar muammolari, jinoyatchiligi, migratsiya masalalari, aqidaparastlikka berilishi bilan bog’liq muammolar ko‘p edi. Aynan shularni bartaraf etish maqsadida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan, eng avvalo, xotin-qizlarga yordam bera oladigan sharoit yaratish maqsadida “Xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon qabul qilindi. U gender tenglik bo‘yicha ishlarni izchillik bilan yo‘lga qo‘yish uchun dastlabki qadamlardan bo‘ldi² deb ta’kidleydi.

Muhtaram, prezidentning 2022-yil 1-martdagi farmoni bilan Xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi Oila va xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi sifatida qayta tashkil etilgan.³

Mana shu farmonlar hayotiy qiyin vaziyatga tushib qilgan ayollarimizni qo’llab quvvatlashga qaratilgan. Ijtimoiy ish xodimi bular bilan ishslashda dastavval baholash metododini o’tkazadi shaxs bilan tanishgandan so’ng. Bunday vaziyatga tushgan ayollar bilan ishslashda ijtimoiy ish xodimi, o’zini shu vaziyatga moslashtira olishi kerak. Psixologik jihatdan qlolaversa har xil jismoniy zo’ravonlikdan aziyat chekkan ayollarimiz holatini o’rganib to’g’ri yo’nalish ko’rsata bilishi lozim, kerak bo’lsa reabilitatsiya markazlariga joylash, psixologlar bilan uchrashtirish darkor.

Qiyin hayotiy vaziyatlardan yana biri bu migratsiya ta’siri tufayli qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan ayollardir. Ayollarimiz ko’pchiligi oilasini boqish uchun yokida savdo sotiq tijorat, tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun ham chet davlatlariga ketishmoqda va har xil ko’ngilsiz voqealarni boshidan o’trkazmoqdalar, bularning ichida odam savdosi ham bor, ayollarimizni ishonchidan foydalangan holda chet davlatlarda yaxshi maosh va ish taklif qilgan holda chaqirib odam savdosi qurbaniga aylantirishmoqda. Chet davlatlardan sog’ salomat qaytib kelgan ayollarimizga ijtimoiy ish xodimlari yordam berishi darkor, uning vaziyati hozirgi holatidan kelib chiqib uni reabilitatsiya davolanish muassasalariga joylashtirishi yo’naltirishi lozim.

O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi raisi qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan ayollarga yordam berish uchun bir nechta choralar ko‘rilishi lozimligini qayd etdi.

Ilk qadam - mas’ul mutaxassislarga murojaat bo‘lishi mumkin. Ayollar huquqlari himoyachisining so‘zlariga ko‘ra, har bir mahallada ayollar va oilalar masalasida mutaxassislar mavjud. Aynan shu xodimlar tomonidan qaltis holatlar va ayollar huquqlari buzilganligi holatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar qo‘mitagacha yetib keladi.

² <https://strategy.uz/index.php?news=879&lang=uz>

³ <https://daryo.uz/2022/11/05/ozbekistonda-ogir-ijtimoiy-vaziyatga-tushib-qolgan-xotin-qizlarga-moddiy-yordam-korsatiladi>

Ayollarga nisbatan zo’ravonlikning barcha shakillari ham qiyin hayotiy vaziyat desak mubolag’a bo’lmaydi.Zo’ravonlikning har xil turlari, jismoniy,jinsiyl, psixologik, iqtisodiy bularning barchasi zo’ravonlikning bazi turlari hisoblanadi.

So‘nggi yillarda xotin-qizlarga nisbatan zo’ravonlik holatlari dolzarb muammo sifatida yuzaga chiqmoqda. Bu illatlarni yo‘qotish uchun huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari qabul qilindi, Senatda Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta’minalash masalalari bo‘yicha komissiyasi tuzildi. Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, ular bilan manzilli ishlash maqsadida “Ayollar daftari” hamda “Yoshlar daftari” tizimlari yo‘lga qo‘yildi.⁴ Ayollarimiz bundan aziyat chekishadi va ko‘p nhollarda buni ommaga olib chiqishmaydi.Agar har bir MFYda xotin qizlar bilan birga ijtimoiy ish xodimi ish olib borsa bunday zo’ravonliklar soni kamaygan bo’lar edi.

Ijtimoiy ish xodimi har bir xonodon (oila) ahvolini o‘rganib, oilalardagi holatni hamda ularning ijtimoiy xizmatlar va yordamga bo‘lgan ehtiyojini baholash sohasida: murojaat qilgan yoki aniqlangan shaxsning ijtimoiy himoyaga muhtoj ekanligini birlamchi baholash orqali aniqlaydi;

birlamchi baholash orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxsning hayoti faoliyatiga salbiy ta’sir qilayotgan xatar omillarini aniqlaydi, tahlil qiladi va xatar darajasini belgilaydi; ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxsning turmush sifatini oshirishga imkon beruvchi shaxsiy fazilatlari, kuchli tomonlarini, bilim va ko‘nikmalarini aniqlaydi;

ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxsning ijtimoiy holati, ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlarini tahlil qiladi;

ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxsning murojaatiga asosan “ijtimoiy ish”ni (keys) ochadi;

ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxsning ijtimoiy holati va ehtiyojlarini joylarga chiqqan holda, shu jumladan idoralararo elektron hamkorlik yo‘li bilan olingan tegishli ma’lumotlarni o‘rganadi hamda kompleks baholashni amalga oshiradi;

ko‘rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini tahlil qiladi va jarayonni muvofiqlashtirib boradi;

kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarda tegishli vakolatli davlat organlarini zudlik bilan xabardor qiladi;

shaxsning ijtimoiy himoyaga muhtoj emasligi aniqlanganda, bir marotabalik

⁴ [AYOLLAR – JAMIYAT KO'ZGUSI \(yoshlarovozi.uz\)](http://AYOLLAR – JAMIYAT KO'ZGUSI (yoshlarovozi.uz))

maslahat beradi va tegishli vakolatlari davlat organiga yo‘naltiradi;⁵

Qiyin hayotiy vaziyatga tushgan ayollar bilan ishlashda ijtimoiy ish xodimi uning haq huquqlarini himoya qila bilishi kerak. Ayollarimiz bugungi kunda haq huquqlarini yaxshi bilmaganligi uchun ham hayotiy vaziyatlarni ko‘philigi mana shu huquqiy savodxonlik yetishmasligi yuzasidan kelib chiqdi.

Ayollar huquqlari - bu ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy, fuqarolik va siyosiy mavqeini mustahkamlaydigan huquqlardir. Ular ayollarni jinsga qarab kamsitishlardan himoya qilish uchun mo‘ljallangan.⁶

O‘zbekiston Respublikasi ayollar huquqlarini har doim ta’minlashga alohida e’tibor beradi. O‘zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib, 1995 yil 6 mayda BMTning Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyasiga qo‘shildi. Shuningdek, Onalikni himoya qilish to‘g‘risida, Mehnat va kasb sohasidagi kamsitish to‘g‘risidagi konvensiyalarini va boshqa xalqaro hujjalarni ratifikatsiya qilgan.

Prezidentimiz tomonidan ayollar huquqlarini himoya qilish ularni jamiyatdagi faolligini oshirish maqsadida ko‘plab chora tadbirlar olib borilmoqda. Qonun qaror, farmonlar qabul qilmoqda bularning barchasi ayollar huquqlarini mustahkamlash jamiyatda ayollar faolligini oshirish uchun qilinmoqda. Misol tariqasida aytishimiz mumkinki Taraqqiyot strategiyasining⁷ 60-maqsadida reproduktiv yoshdagini va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha, 85-maqsadda esa, ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 barobar kamaytirish, 80 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish, xotin-qizlarni tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, hududlarda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish, har bir hududda «Xotin-qizlar hunarmandchilik markazlari» va klasterlarni tashkil qilish masalalari qamrab olingan. Shu bilan birga, xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyatini takomillashtirish, mintaqaviy markazlar ochish choralarini ko‘rish, tadbirkor xotin-qizlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni realizatsiya qilishga ko‘maklashish hamda xotin-qizlarni tadbirkorlikka o‘qitish va biznesga jalb qilish kabi dolzarb vazifalar belgilab berilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, agar barcha xotin qizlarimizni bandligini ta’minalasak, qiyin hayotiy vaziyatga tushish omillari bir muncha yo‘qoladi. Ijtimoiy ish xodimi har bir MFYda o‘ziga qarashli biriktirigan oilalar bilan individual ishlab, kerakli manzillarga yo‘naltirib muammoni atroflicha o‘rganishi lozim, ijtimoiy ish xodimi hech qachon bir tomonning fikrini eshitgan xolda fikr yuritmasligi darkor. Ayollar bilan ishlashda bunday vaziyatga tushishiga qanday

⁵ ijtimoij.xodimining.asosiy.funksiyalari.ihma.uz

⁶ Bugungi kunda ayollarni huquqlari va muammolari | Paxtachi.uz

⁷ [85 Mafura Muxtarxonovna Inagamova 632-637.pdf \(oriens.uz\)](http://85_Mafura_Muxtarxonovna_Inagamova_632-637.pdf)

omillar sabab bo’lgan, qanday haq-huqulari buzilganligi qanday ijtimoiy yordamga muhtojligiga e’tibor qaratish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. <https://daryo.uz/2022/11/05/ozbekistonda-ogir-ijtimoiy-vaziyatga-tushib-qolgan-xotin-qizlarga-moddiy-yordam-korsatiladi>
2. AYOLLAR – JAMIYAT KO‘ZGUSI (yoshlarovozi.uz)
3. Ijtimoiy xodimning asosiy funksiyalari (ihma.uz)
4. Bugungi kunda ayollarni huquqlari va muammolari | Paxtachi.uz
5. 85_Mafura_Muxtarxonovna_Inagamova_632-637.pdf (oriens.uz)